
**FUQAROLIK HUQUQIDA MAJBURIYATDAGI SHAXSLARNING
O'ZGARISHI ASOSLARI****Yaxshiboyev Hayotbek Baxodir o'g'li***Toshkent Davlat Yuridik Universiteti**Xususiy huquq fakulteti 4-kurs talabasi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:04.01.2026**Revised: 05.01.2026**Accepted:06.01.2026***KALIT SO'ZLAR:***novation, regress
majburiyat, sessiya,
faktoring shartnomasi,
subrogatsiya, shaxsiy
huquqlar bilan bog'liq
majburiyatlar*

Mazkur maqolada bugungi kunda fuqarolik huquqida majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi instituti har tomonlama tahlil qilinib, majburiyat tushunchasi, kreditor va qarzdor o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, shuningdek majburiyatni bajarish jarayonida shaxslarning almashishiga olib keluvchi asoslar yoritilgan. Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishini ixtiyoriy, majburiy va obyektiv holatlarga ko'ra tasniflanib, har bir holatni Fuqarolik kodeksi normalari va sud amaliyoti misolida ochib beriladi. Maqolada kreditor va qarzdorning almashishi, sessiya, subrogatsiya, faktoring, kafillik va garov kabi institutlarning majburiyatdagi shaxslar almashinuvidagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, shaxsiy tusga ega bo'lgan majburiyatlarda shaxslar almashishiga yo'l qo'yilmasligi masalasi asoslab berilgan. Yevropa huquqiy tizimlarida, xususan novation instituti doirasida majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi tajribasi ham qiyosiy-huquqiy jihatdan ko'rib chiqilgan.

Kirish

Majburiyat-kreditorning qarzdor tomonidan muayyan harakatlar sodir etishini talab qilishi va shunga monand tarzda qarzdorning ma'lum bir harakatni sodir etishi tushuniladi. Majburiyatda doimo ikki taraf kreditor va qarzdor turadi. Kreditor o'z talablarini qarzdorga qo'yadi va qarzdor bu talablarni bajarishi kerak hisoblanadi. Ammo majburiyatlarni bajarishda muayyan holatlar vujudga kelishi majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Majburiyatni bajarishda taraflar o'rinlarini boshqa shaxslar bilan almashtirishga qonunchilik ham yo'l qo'yadi. Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra majburiyatda kreditor ham qarzdor ham alamashishi mumkin. Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishiga sabab bo'luvchi holatlarni uch guruhga bo'lishimiz mumkin. Bular:

- Ixtiyoriy asosda
- Majburiy asosda
- Obyektiv holatga qarab

Majburiyatdagi shaxslarning ixtiyoriy asosda o'zgarishi –bu majburiyatda qatnashuvchi tomonlar ixtiyori asosida yuz beradi. Masalan qarz shartnomasi bo'yicha qarzni qarzdor emas uning aka-ukasi, ota-onasi, qarindoshlari yoki do'sti tomonidan erk ixtiyori asosida to'lashidir. Ammo ushbu jarayon Fuqarolik kodeksi 322-moddasiga ko'ra kreditor tomonidan roziligi berilgandan keyin amalga oshirilishi kerak. Kreditor almashganda esa qarzdor roziligi olinishi talab etilmaydi. Q.Abdulhasanovanning fikricha kreditor huquqlarining qarzdorning rozilgisiz boshqa shaxsga o'tishi uchun qonun yoki shartnomada to'siqlar bo'lmasligi kerak. Negaki, qarzdor tomonidan majburiyatni qaysi kreditorga bajarish ahmiyatga ega bo'lmasa-da, kreditorga kim qarzdor ekanligi muhim hisoblanadi. Majburiy asosda taraflar almashishiga misol tariqasida sud qarorini keltirsak bo'ladi. Sud qarzdor yuridik shaxsni to'lovga qobiliyatsiz deb e'lon qilib uning o'rniga huquqiy vorisiga ushbu yuridik shaxsning huquq va majburiyatlarini yuklashi mumkin. Natijada kreditor oldida burchli hisoblangan qarzdorning almashishi yuzaga keladi. Yoki ulushli mulkning mulkdorlaridan biri o'z ulushini boshqa shaxsga sotganda boshqa mulkdorlarda imtiyozli sotib olish huquqi bo'ladi. Fuqarolik kodeksi 224-moddasi 4-qismiga ko'ra imtiyozli sotib olish huquqini buzgan holda sotganda boshqa mulkdorlar 3 oy sotib oluvchining huquq va majburiyatlarini o'ziga o'tkazishni so'rab murojaat qilishlari mumkin. Mazkur jarayonda sud da'voni qanoatlantirsa majburiyatdagi taraflar majburiy tartibda o'zgargan hisoblanadi. Bunda kreditor roziligini olish talab etilmaydi. Majburiyatdagi shaxslarning obyektiv holatlarga ko'ra ya'ni vaziyat o'zgarishi sabab

shaxslar almashishiga misol tariqasida qarzdor yoki kreditorning vafot etishini keltirsak bo'ladi. Negaki bu jarayon hech qaysi tarafning xohishi yoki ma'lum bir majburiyat natijasida vujudga kelmadi, balki jarayon kutilmagan tarzda yuz beradi. Majburiyatda kreditor almashishi sessiya, sobiq kreditor esa sedent deb nomlanadi. Fuqarolik kodeksi 318-moddasiga binoan kreditor universal huquqiy vorislik asosida, kreditor huquqlarining boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risida sud qarori, majburiyat bo'yicha javobgar bo'lmagan kafil yoki garovga qo'yuvchi tomonidan bajarilishi, sug'urta holati uchun javobgar bo'lgan qarzdorga nisbatan kreditor huquqlarining subrogatsiyasi asosida huquqlari boshqa shaxsga o'tishi mumkin. Ammo fuqarolik qonunchiligiga binoan majburiyatlardagi kreditorning almashishiga yo'l qo'yilmaydigan vaziyatlar ham mavjud. Bularga misol sifatida shaxsiy tusga ega bo'lgan majburiyatlarni keltirsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki shaxsiy tusdagi majburiyatlar kreditorning shaxsi bilan bog'liq bo'ladi va boshqa shaxsga o'tkazish taraflarning huquqiy holatiga ta'sir qiladi. Masalan topshiriq shartnomasiga ko'ra ishonch bildirgan shaxs aynan topshiriqni bajaruvchiga ishonchi sababli bergan hisoblanadi. Ushbu holda topshiriqni bajarishni boshqa shaxsga o'tkazish ishonch bildirgan shaxsning holatini yomonlashtirishi mumkin. Shuning uchun topshiriq shartnomasida kreditor yoki qarzdorning vafot etishi majburiyatlarni bekor bo'lishiga olib keladi. Qo'shimcha tarzda Fuqarolik kodeksi 314-moddasida kreditorning hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni to'lash hamda alimentlar to'g'risidagi talablar boshqa shaxsga o'tkazilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi bir qancha harakatlarni talab qiladi. Jumladan kreditorning alamashi natijasida qarzdorni ogohlantirishi kerak, yo'qsa yuzaga keladigan oqibatlar bo'yicha javobgar bo'lishi kerak. Masalan kreditor almashganidan xabari bo'lmagan qarzdor qarzini dastlabki kreditorning bank hisob raqamiga o'tkazishi uni majburiyatni bajarganini isbotlaydi. Chunki qarzdor o'z majburiyatlarini to'la bajardi, kreditor almashganini haqiqatda bilmagan bo'lsa kreditor oqibatlar bo'yicha javob berishi kerak. Bu jarayonda kreditor bilan bir qatorda qarzdorda ham majburiyat mavjud. Qaysiki, qarzdor majburiyatni bajarish chog'ida yangi kreditordan ijroni haqiqatda kreditor qabul qilayotganini talab qilishi kerak. Almashish qaysi asosga ko'ra yuz bergan bo'lsa shuni tasdiqlovchi hujjat(masalan sud qarori)ni ko'rsatishi kerak. Qarzdor yangi kreditor o'zini haqiqatda kreditorligini isbotlamaguncha majburiyatni bajarishni to'xtatib turishga haqli hisoblanadi. Qarzdorni almashtirish universal huquqiy vorislik asosida, qarzdorni almashtirish to'g'risida sud qarori asosida, qarzni boshqa shaxsga o'tkazganda amalga oshirilishi mumkin. Mazkur asoslarga misol keltiradigan

bo'lsak, qarzdor majburiyati huquqiy vorislik asosida merosxo'rlariga o'tishi mumkin. Ijara oluvchi ijara narsasi bo'lgan uyga uning aybi bilan zarar yetkazilmaganligini isbotlasa, sud tomonidan zarar yetkazgan shaxs bilan majburiyatda o'rin almashtirilishi mumkin. Qarzdor boshqa bir shaxs bilan majburiyat bajarish yuzasidan kelishib qarzni o'sha shaxsga o'tkazganda qarzdor majburiyatda o'zgargan deb hisoblanadi.

Majburiyatda shaxslar almashganda huquq va majburiyatlar to'la hajmda o'tadi. Yangi kreditor majburiyatni to'la hajmda yoki tegishli bajarilmagan qismini bajarishni talab qila oladi, yangi qarzdor esa dastlabki qarzdor majburiyatini o'z zimmasiga olgan holda majburiyatlarni lozim darajada bajarishi kerak bo'ladi. Dastlabki kreditor va qarzdor huquq va majburiyatdan to'la ozod bo'ladi. Agarda kreditor va qarzdor kafil yoki kafolat bersagina yangi qarzdorga qo'shimcha javobgar bo'lishi mumkin. Aynan ushbu holatga o'xshash vaziyat yuzasidan sud amaliyotida ham ko'rilgan ishlar mavjud. Jumladan Fuqarolik ishlari bo'yicha Shayhontohur tumanlararo sudi sudlovidagi fuqarolik ishida kreditor o'z mulkiga yetkazilgan zararni qoplashni so'rab murojaat qilgan. Sud majlisida o'rganilgan holatlarga ko'ra kreditor o'z mulkini ijaraga bergan, ijarachi aybi bilan ijaradagi uyni suv bosib, uyning holatiga jiddiy ziyon yetkazadi. Shu sababli ijaraga beruvchi ikki nafar shaxs ya'ni, dastlabki ijarachi va yangi ijarachiga nisbatan mulkiy zararni qoplash to'g'risida da'vo qilgan. Vaholangki, ijaradagi mulk tasarruf qilingan ya'ni, qayta ijaraga berilgan va bundan mulk egasini ham xabari bo'lgan. Javobgar tomondagi dastlabki qarzdor da'voga nisbatan e'tiroz bildirib, o'zini majburiyatlari allaqachon uyni yangi ijarachiga topshirgan paytda tugaganligini ta'kidlagan. Natijada sud ishdagi barcha holatlarni o'rgangan holda yangi ijarachiga yetkazilgan mulkiy zararni qoplash majburiyatini qo'yadi. Mazkur sud jarayonidagi holatni ko'radigan bo'lsak, majburiyatdagi shaxslar almashyapti va huquq va majburiyat bir shaxsdan ikkinchisiga o'tmoqda. Fikrimcha sud yetkazilgan zararni yangi qarzdorga yuklab to'g'ri qaror qabul qilgan. Negaki, Fuqarolik kodeksi 546-moddasiga ko'ra ijaraga oluvchi mulkni ikkilamchi ijara, qayta ijara yoki boshqacha tarzda tasarruf qilishi mumkinligi, ijaraga oluvchi shartnoma bo'yicha ijaraga beruvchi oldida javobgar bo'lib qolaverishi, qayta ijarada esa dastlabki ijarachi majburiyatdan to'la ozod bo'lishi nazarda tutilgan. Bundan tashqari Fuqarolik kodeksi 9-moddasida fuqarolik muomalasi ishtirokchilari halol, oqilona va adolat bilan harakat qilishi lozimligi nazarda tutilgan. Ya'ni ijaraga beruvchining qayta ijarada dastlabki qarzdordan ham majburiyatni bajarishni talab qilishi adolat prinsipining talablari buzib qo'yimoqda.

Majburiyatdagi shaxslar almashishi uchun ma'lum bir bosqichdan o'tishi kerak bo'lgan majburiyatlar ham mavjud. Masalan kafillik va garov shular qatoriga kiradi. Ya'ni ushbu majburiyatning ta'minlash usullari faqatgina qarzdor o'zining majburiyatlarini bajarmagan va lozim darajada bajarmagan bo'lsagina kafil yoki garovga qo'ygan shaxs majburiyatni bajarish uchun munosabatga kirib keladi. Aynan Fuqarolik kodeksi 293-moddasida kafilning kreditor oldida javobgarligi keltirilgan. Unga ko'ra kreditor majburiyatni bajarishni to'g'ridan-to'g'ri kafildan talab qilishi mumkin emas. Umuman olganda garov hamda kafillik kredit huquqlarining qo'shimcha kafolati hisoblanadi. Garovning majburiyatda shaxslar almashinishiga kiritsak bo'ladi. Bu jarayonda garovga qo'yuvchi kim ekanligi asosiy e'tibor talab qiladi. Agarda garovga qo'yuvchi qarzdordan boshqa uchinchi shaxs bo'lsa qarzdor majburiyatlarini bajarmaganligi natijasida kreditor garov narsasiga majburiyatni bajarish vositasida qaratsa majburiyatda shaxslar almashishiga misol bo'la oladi. Masalan A shaxs majburiyatda qarzdor va majburiyatni ta'minlash usuli sifatida garov kelishildi. A shaxsda garovga qo'yish uchun hech narsa yo'qligi sababli B shaxs garov sifatida turar joyini garovga qo'ydi. A shaxs majburiyatni bajarmadi va kreditor majburiyatni bajarish usuli sifatida garovdagi turar joyga qaratdi. Natijada asosiy qarzdor o'rniga garovdagi turar joy egasi majburiyatda qarzdor qatnashdi. Kafillikning majburiyatda shaxslarning o'zgarishiga kiritish yoki kiritmaslik keng muhokama qilinadi. Ya'ni ushbu ta'minlash usullari haqida ikki xil qarash mavjud. Birinchisi kafillik asosiy majburiyatdan alohida, ya'ni, qarzdor o'z majburiyatlarini bajarmagan paytdagina ushbu majburiyatni bajarishga kirishadi. Ikkinchi taraf esa kafil asosiy qarzdor bilan birga solidar tarzda javob beradi, kafilning majburiyatni bajarishi majburiyatdagi shaxslarning almashishiga misol bo'lmaydi degan fikr bildirgan. Ikkala taraflarning fikrini o'rgangan holda shuni aytishimiz mumkinki, kafolat hamda kafillik yuqorida ta'kidlangandek kreditorning qo'shimcha kafolati hisoblanadi. Kreditor qarzdorning majburiyatlarini bajarmagani sababli kafilga talab qo'yadi. Fikrimcha solidar javobgarlik belgilanishi ushbu jarayonda noto'g'ri bo'lmaydi. Chunki solidar javobgarlikda talab qarzdor va kafilga ham qo'yiladi. Talabning ikkalasiga qo'yilishi kafilning majburiyatni bajarishda huquqlarini himoya qilishi mumkin. Agarda qarzdor asosiy majburiyatni bajarmagani oqibatida kafil qo'shimcha tarzda to'la bajaradi. Chunki qarzdor majburiyatni bajarishdan bosh totganda kreditor kafildan majburiyatni to'la bajarishini talab qilishga haqli. Ikkala fikr yuzasidan xulosa qiladigan bo'lsak, kafilning majburiyatni bajarishi majburiyada shaxslar o'zgarishiga misol bo'la olmaydi. Lekin qarzdorning majburiyati ushbu majburiyat yuzasidan kafil

bo'lmagan shaxs tomonidan bajarilishi majburiyatda shaxslarning ixtoyoriy almashishiga misol bo'lishi mumkin. Qo'shimcha tarzda kafil, kreditor va qarzdor munosabatlarida baribir almashish kuzatiladi. Negaki, kreditor talablarini lozim darajada bajargan kafil uning uning barcha huquqlariga ega bo'ladi. Ya'ni kafil regress tartibida qarzdordan o'zi qilgan xarajatlarni to'la qoplashni talab qilishga haqli. Lekin ushbu jarayonda kafil majburiyatlarini bajarmasligi qanday oqibatlarga olib keladi?. Amaldagi fuqarolik qonunchiligiga ko'ra kafil majburiyatni bajarishdan bosh tortsa kreditor uning mulkiga yoki umumiy mulkiga qaratishga haqli. Agarda kafil majburiyatlarni bajarish jarayonida vafot etsa yoki yuridik shaxs bo'lganda tugatilganda majburiyatni bajarish taqdiri qanday kechadi. Yevropa davlari jumladan Fransiya fuqarolik kodeksi 2294-moddasiga binoan kafil majburiyatlarini bajara olmasa kreditor uning merosxo'rlaridan majburiyatni bajarishni talab qilishga haqliligi nazarda tutilgan. Xo'sh ushbu jarayon bizning huquqiy tizimda qanday tartibga soladi. Bu borada qonunchilikda aniq bir belgilangan qoida mavjud emas. Lekin majburiyat mazmuni kafillikning bekor bo'lish asoslari, meros masalalari ko'rib chiqqanda kafillikning boshqa shaxsga o'tganda bekor bo'lishi haqida qoida emasligi sabab kafillik universal huquqiy vorislik asosida o'tishi mumkinligi haqidagi to'xtamga kelsak joiz bo'ladi. Negaki, fuqarolik qonunchiligiga ko'ra nima taqiqlanmagan bo'lsa, uni bajarish mumkin degan qarash mavjud.

Subrogatsiya va faktoring shartnomalarining majburiyatda shaxslarning almashinuvidagi o'рни. Subrogatsiya - bu uchinchi shaxsga, odatda sug'urtalovchiga, sug'urta narsasiga nisbatan yetkazilgan zararni qoplash va ushbu javobgarlik, zarar uchun mas'ul bo'lgan shaxsdan undirishni ta'minlash imkonini beruvchi huquqiy tamoyil. Ushbu kontseptsiya odatda sug'urta sohasida o'z sug'urtalovchilariga tovon to'lagan sug'urtalovchilarning manfaatlarini himoya qilish uchun qo'llaniladi. Subrogatsiya Rim huquqidan kelib chiqqan va keyinchalik ingliz umumiy huquqiga kiritilgan. Sug'urta kontekstida subrogatsiya sug'urtalovchi o'z sug'urtalovchisiga uchinchi shaxs tomonidan etkazilgan zarar uchun tovon to'laganida yuzaga keladi. Sug'urtalovchi sug'urta qildiruvchiga to'langan summani javobgar uchinchi shaxsdan undirishni talab qilishga haqli. Fuqarolik kodeksi 957-moddasida sug'urta qildiruvchiga zarar qoplangandan so'ng javobgarga nisbatan talab qilish huquqi sug'urtalovchiga o'tishi belgilangan. Masalan, faraz qilaylik, uy egasi yong'in natijasida etkazilgan zararni qoplaydigan mulkni sug'urta qilgan. Agar yong'in uchinchi shaxsning beparvoligi tufayli sodir bo'lsa, odatda uy egasining sug'urta kompaniyasi sug'urtalangan mulkka etkazilgan zararni qoplash xarajatlarini

qoplaydi. Sug'urta polisi bo'yicha uy egasiga yong'indan etkazilgan zararni qoplashdan so'ng, sug'urta kompaniyasi subrogatsiya huquqidan foydalanadi. Bunday holda, sug'urtalovchi subrogatsiya tufayli uy egasining o'rniga huquqiy pozitsiyasini egallaydi va yong'in uchun javobgar bo'lgan uchinchi shaxsdan to'langan summani undirishga intiladi. Aynan ushbu jarayon majburiyatda shaxslarning o'zgarishiga misol bo'la oladi. Subrogatsiya bo'yicha sud amaliyotida bir nechta sud muammoli ishlarni hal qilgan. Jumladan fuqarolik ishlari bo'yicha Toshkent viloyati Ohangaron tumanlararo sudining 23.02.2024 sanasidagi 2-1107-2302/14500-sonli sud ishida sug'urta korxonasi yo'l harakati qoidalarini qo'pol tarzda buzib, yo'l transport hodisasini sodir etgan fuqaroga nisbatan sug'urta korxonasi sug'urta qildiruvchiga qoplab bergan zararni undirishni so'rab da'vo kiritgan. Sud javobgarga yo'l xarakati qoidalarini buzganligi sababli qo'llagan jazo chorasi hamda Fuqarolik kodeksi 957-moddasini ya'ni sug'urta korxonasi sug'urta qildiruvchiga haqiqatda yetkazilgan zararni qoplab berganligini hisobga olgan holda majburiyatdagi shaxslar almashishini tasdiqlagan, ya'ni, javobgardan sug'urta tashkilotiga yetkazilgan zarar uchun qoplangan pulni to'lash haqida qaror chiqargan.

Factoring shartnomasi hozirgi zamonda bizning qonunchilikka asta-sekinlik bilan kirib kelayotgan shartnomalardan biri hisoblanadi. Factoring shartnomasiga ko'ra factoring kompaniyasi mijozining uchinchi shaxs oldidagi debitorlik qarzni darhol bartaraf etadi va buning evaziga mijoz factoring kompaniyasiga qoplangan qarz miqdorini foizlar bilan birga qaytarish majburiyatini oladi. Factoring shartnomasiga misol tariqasida mahsulot yetkazib berish shartnomasiga ko'ra sotib oluvchi kelishilgan tovarlarni qabul qilib olish va uning haqini 3 oy davomida bo'lib to'lash majburiyatini oladi. Ammo mahsulotni sotib olgan taraf shu muddat mobaynida majburiyatini bajarishga mablag'i mavjud bo'lmasa, bank yoki factoring kompaniyasiga murojaat qilishi mumkin. Mazkur tijorat tashkilotlar debitorlik qarzni bartaraf etadi. Buning evaziga esa murojaat qilgan shaxsga o'zi to'lagan pulni foizlar bilan qaytarish talabini qo'yadi. Mazkur jarayonda bank yoki factoring kompaniyasi asosiy qazdor bilan majburiyatni bajarishda o'rin almashdi. Debitorlik qarzni bartaraf etgandan so'ng esa kreditorning talab majburiyat bo'yicha talab qilish huquqi bank yoki factoring kompaniyasiga o'tdi. Subrogatsiya va factoring shartnomasi majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishining zamonaviy usullarini o'zida mujassam etgan huquqiy munosabatlar sifatida keltirsa bo'ladi.

Majburiyatdagi shaxslar o'zgarishi va regress majburiyatlarning o'zaro farqi. Fuqarolik qonunchiligida majburiyatdagi shaxslarning almashinuvi sessiya (session) deb

ataladi va bu atamaning kelib chiqishi Rim huquqi bilan bog'liq hisoblanadi. Qadimgi Rimda qullar har doim xo'jayinlari oldida qarzdor hisoblanib, majburiyat olgan. Agar biror qul boshqa quldorga sotilishi qulning xo'jayinini ya'ni kreditori o'zgarishiga olib kelgan. Bundan tashqari agar qul vafot etsa uning farzandlari ota-onasi o'rniga xo'jayini oldida majburiyatlarni bajarishga mas'ul bo'lgan. Bu jarayonda qarzdorning alamashinuvini kuzatiladi. Shu tariqa Rim huquqida majburiyatda shaxslarning o'zgarishi ya'ni **session** atamasi paydo bo'lgan. Zamonaviy fuqarolik huquqida majburiyatdagi shaxslar o'zgarishi ya'ni sessiya va regress majburiyatlar o'rtasida tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Chunki ikkala majburiyatlarda ham shaxslar o'zgarishi kuzatiladi, ammo regress majburiyatlari o'ziga xos xususiyatlarga ega hisoblanadi. Xususan regress majburiyatlari asosi majburiyatning hosilasi hisoblanadi hamda unda ishtirok etuvchilar bittasi yoki barchasi asosiy majburiyatning subyektlari hisoblanadi³. Masalan, qarz shartnomasiga asosan bir nechta qarzdor mavjud bo'lib, majburiyat qarzdorlaridan biri tomonidan bajarilsa, majburiyatni bajargan shaxsda qolgan qarzdorlardan majburiyatni bajarishini kreditor sifatida talab qiladi. Regress majburiyatlarni sessiyadan asosiy farqi majburiyatni aynan asosiy majburiyatdagi shaxslarni bajarishi hisoblanadi. Fuqarolik huquqiga binoan sessiyada istalgan shaxs majburiyatni bajarib, kreditor sifatida talab qilish huquqini qo'lga kiritishi mumkin (majburiyat kreditor yoki qarzdor shaxsi bilan bo'g'liq bo'lgan majburiyatlar bundan mustasno).

Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi bo'yicha Yevropa tajribasi. Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi Yevropa yurisdiksiyalarida majburiyatni o'tkazish bo'yicha umumiy doktrinal tushuncha mavjud emas, qoidalar turlicha talqin etiladi. Ba'zi yurisdiksiyalarda majburiyatning o'tkazilishi o'ziga xos yuridik institut sifatida ko'rib chiqiladi, bunda qarzdorning pozitsiyasi o'zgargan bo'lsa-da, majburiyatning o'zi bir xil bo'lib qolaveradi. Ya'ni majburiyatda shaxslar almashishini yozma bitim tarzida shakllantirilmaydi va kreditorning roziligining o'zi kifoya qiladi. Boshqa yurisdiksiyalar majburiyatning o'tkazilishini yangilanish holati sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu hollarda majburiyatni o'tkazish uch xil usulda amalga oshirilishi mumkin va barcha hollarda kreditorning roziligi asosiy shartdir. Majburiyatni o'tkazishni dastlabki qarzdor, yangi qarzdor va kreditor o'rtasidagi uch tomonlama kelishuv orqali amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, u kreditor rozi bo'lgan dastlabki qarzdor va yangi qarzdor o'rtasidagi kelishuv orqali amalga

³ Mualliflar jamoasi. 2017. Fuqarolik huquqi. Darslik. I qism. Toshkent. 222-bet

oshirilishi mumkin. Va nihoyat, bu yangi qarzidor va kreditor o'rtasidagi kelishuv yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Ikkinchi holda, faqat ba'zi yurisdiksiyalar majburiyatni o'tkazish kuchga kirishi uchun dastlabki qarzidorning roziligini talab qiladi. Dastlabki qarzidorning bunday roziligi Germaniya, Avstriya, Frantsiya va Gretsiya qonunlariga ko'ra zarur bo'lmasa-da, Daniya, Angliya va Irlandiya qonunlariga ko'ra talab qilinadi.⁴ Majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishi Yevropa yurisdiksiyalarida novation ya'ni yangilanish ataladi. Novation asosan anglosakson huquq tizimida bo'lgan davlatlar qonunchiligida keng miqyosda qo'llanadi. Jumladan ingliz huquqida majburiyatlarni boshqa shaxsga o'tkazishning keng tarqalgan namunasi - shartnoma tarafi o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxsga topshirishdir. Bu novation deb nomlanuvchi jarayon orqali sodir bo'lishi mumkin, bunda barcha ishtirokchilar shartnomada bir tomonni boshqasiga almashtirishga rozi bo'lishadi. Novation barcha tomonlarning roziligini talab qiladi va odatda majburiyatlarni topshirishni rasmiylashtirish uchun yangilanish shartnomasini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Ushbu shartnomada dastlabki tomon shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlaridan voz kechadi va ularni yangi tarafga o'tkazadi. Shundan so'ng, vorisi shartnoma shartlarini bajarish, shu jumladan to'lovlarni amalga oshirish, tovarlar yoki xizmatlarni taqdim etish va boshqa shartnoma majburiyatlarini bajarish uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Yangilanish ikki asosiy usulda sodir bo'lishi mumkin:

1. Ob'ektiv yangilanish: Yangilanishning bu turi majburiyat ob'ektini o'zgartirish bilan yangi majburiyatni dastlabki majburiyat bilan almashtirishni o'z ichiga oladi. Bu shuni anglatadiki, tomonlar dastlabki majburiyatni boshqa obyekt yoki maqsadga ega bo'lgan yangisi bilan almashtirishga rozi bo'ladilar.

2. Shaxsiy yangilik: Bunda majburiyatning bir xil obyekti va sababini saqlab qolgan holda, dastlabki qarzidor yoki kreditorning o'rniga yangi qarzidor yoki kreditorni almashtirish sodir bo'ladi. Yangi tomon dastlabki tomonning huquq va majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, ularni shartnomada amalda almashtiradi.

Novationning ikkinchi shakli majburiyatdagi shaxslarning almashishiga misol bo'la oladi. Novation bo'yicha ingliz fransuz va german huquqida juda mashur sud ishlari yoki keyslar mavjud. Jumladan novatsiya bilan bog'liq mashhur ishlardan biri 1985 yilda Buyuk Britaniyada bo'lib o'tgan Tito v Waddell ishidir. Bunday holda, ijara shartnomasi bo'yicha

⁴ https://max-eup2012.mpipriv.de/index.php/Transfer_of_Obligation

majburiyatlarni bir tomondan boshqasiga o'tkazish uchun ilk bor novatsiya(novation) ishlatilgan. Dastlabki ijara shartnomasi uy egasi va ijarachi o'rtasida tuzilgan. Ijarachi ijara bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini yangi ijarachiga o'tkazmoqchi edi. Majburiyatlarning bunday o'tkazilishiga erishish uchun Novation ishlatilgan, uy egasi dastlabki ijarachini o'z majburiyatlaridan ozod qilishga va yangi ijarachini ijara shartlarini bajarish uchun mas'ul shaxs sifatida qabul qilishga rozi bo'lgan. Tito v Waddell sudi novationni shartnoma majburiyatlarini topshirishning haqiqiy huquqiy mexanizmi deb tan oldi va tomonlar o'rtasidagi novation shartnomasini tasdiqladi. Ushbu ish shartnomani yangilashda ishtirok etuvchi barcha tomonlarning aniq roziligi muhimligini ta'kidlaydi va shartnoma munosabatlaridagi o'zgarishlarni yengillashtirish uchun yangilanishdan qanday samarali foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Tito v Waddell ishi novatsiyadan huquqiy nizolarda yoki tomonlar o'rtasida huquq va majburiyatlarni o'tkazish uchun shartnoma kelishuvlarida qanday foydalanish mumkinligining yorqin namunasi bo'lib xizmat qiladi⁵. Aynan ushbu sud ishi Yevropa yurisdiksiyalariga novation kirib kelishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Yevropa furolik qonunchiligiga novationning kirib kelishi shartnoma tuzuvchi tomonlarga mavjud, tuzilgan shartnomani vaziyatning o'zgarishi yoki tomonlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, dastlabki kelishuvning yaxlitligini saqlagan holda o'zgartirish imkoni berdi. Yevropa ba'zi bir yurisdiksiyalarida majburiyatdagi shaxslarning almashinuvi murakkab huquqiy bosqich sifatida shakllangan. Milliy qonunchilik tizimiga novatsiyaning kiritilishi majburiyatda shaxslar o'zgarishining aniq va yaxlit tizimini vujudga keltirgan bo'lardi. Negaki, novationda qatnashuvchi shaxslar kelishuvi va shartnoma imzolashi majburiyatda shaxslar o'zgarishiga asos bo'ladi. Bu jarayon kreditor va qarzdor huquqlarining kafolati bo'lib xizmat qilishi mumkin. Chunki qonunchiligimizga ko'ra qarzdor majburiyatni bajarishda boshqa shaxs bilan almasha kreditor roziligi olinishi kerakligi belgilangan. Kreditor roziligini olish, yangi kreditorning qarzdor oldida haqiqatda kreditorligini isbotlash juda ko'p vaqtni talab qiladi va ushbu jarayonlar davomida nizo kelib chiqish ehtimoli katta hisoblanadi. Ular kelishgan holda almashish yuzasidan majburiyatda qatnashuvchi barcha shaxslar shu jumladan yangi qarzdor va yangi kreditor shartnoma imzolashi taraflarda muammo va e'tirozlarni kamaytirishi mumkin. Chunki, ular o'rtasida imzolangan shartnoma taraflar qanday yo'sinda harakat qilishini aniq tarzda belgilab beradi.

⁵ <https://www.lawteacher.net/cases/tito-v-waddell.php>

Xulosalar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, majburiyatda shaxslar o'zgarishi majburiyatlarning bajarish sifati va ehtimolini oshiradi. Negaki, majburiyatni bajara olmagan qarzdor qarzni boshqa shaxsga o'tkazishidan maqsad aynan majburiyatni bajarish hisoblanadi. Shu sababli qonunchilik majburiyatdagi shaxslarning o'zgarishiga ruxsat etgan. Umuman olganda majburiyatda shaxslar o'zgarishi shartnomaning moslashuvchanligini, ya'ni turli xil obyektiv sabablar vujudga kelganda, ushbu vaziyatni nazorat qila olish, shartnomaviy munosabat davomiyligini, taraflar huquqlari buzilish xavfini oldini olishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Fuqarolik kodeksi - <https://lex.uz/acts/-111189> , <https://lex.uz/docs/-180552>
2. French Civil Code - https://www.trans-lex.org/601101/_/french-civil-code-2016/
3. BGB-<https://www.fd.ulisboa.pt/wp-content/uploads/2014/12/Codigo-Civil-Alemao-BGB-German-Civil-Code-BGB-english-version.pdf>
4. Cases- <https://www.lawteacher.net/cases/>
5. Fuqarolik huquqi – I.B.Zokirov 2006
6. Majburiyat huquqi- H.R.Rahmonqulov 2009
7. Мажбуриятда шахслар ўзгаришининг фуқаролик-ҳуқуқий муаммолари – A.Abzalov 2013
8. Mualliflar jamoasi. 2017. Fuqarolik huquqi. Darslik. I qism. Toshkent.
9. https://max-eup2012.mpipriv.de/index.php/Transfer_of_Obligation
10. <https://caselaw.nationalarchives.gov.uk/ewhc/comm/2024/2762query=NOVATION>
11. Mualliflar jamoasi. 2023. Fuqarolik huquqi. Darslik. II qism. Toshkent.